

NUTQIY AKTLAR NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Faxriddinova Sitora Oybek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

e-mail: faxriddinovasitora1202@gmail.com

tel: +99893-256-23-12

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishi va ularning rivojlanish bosqichlari hamda kommunikativ ahamiyati yoritilib, bunda J.Ostin va J.Syorl kabi olimlarning mazkur sohadagi izlanishlari amaliy misollar yordamida chuqur va atroflicha tadqiq etiladi. Shuningdek, ushbu olimlarning nutqiy aktlar nazariyasiga oid falsafiy qarashlari qiyosiy tahlil etilib, umumiy va farqli jihatlar ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *nutqiy akt, , lokutsiya, konseptual asos, illokutsiya, klassifikatsiya perlokutsiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается формирование теории речевых актов, этапы их развития и их коммуникативное значение, в которой глубоко и всесторонне изучаются исследования таких ученых, как Дж. Остин и Дж. Сёрл, в этой области с использованием практических примеров. Также проводится сравнительный анализ философских взглядов этих ученых на теорию речевых актов, выявляющий общие и различные аспекты.*

Ключевые слова: *речевой акт, локуция, концептуальная основа, иллокуция, классификация, перлокуция.*

Abstract: *This article discusses the formation of the theory of speech acts, the stages of their development and their communicative significance, in which the research of scientists such as J. Austin and J. Searle in this field is deeply and comprehensively studied using practical examples. Also, the philosophical views of these scientists on the theory of speech acts are comparatively analyzed, revealing common and different aspects.*

Keywords: *speech act, locution, conceptual basis, illocution, classification, perlocution.*

KIRISH

Zamonaviy pragmalolingvistika sohasida nutqiy aktlar kommunikativ muloqotning niyati va uning ta'sir kuchini namoyon etuvchi nazariy vosita sifatida chuqur va atroflicha o'rganilmoqda. Uning mohiyati shundan iboratki, kishilar til orqali faqatgina axborot almashibgina qolmay, balki muayyan vazifani bajaradilar- buyruq beradilar, iltimos qiladilar yoki maslahat so'raydilar. Aynan mana shu jarayonda nutqiy aktlar yuzaga keladi. Nutqiy akt va nutqni shakllantirish haqidagi ilk tushuncha va qarashlar V. Gumboldt, L.P. Yakubinskiy, S.Balls M.M.Baxtin kabi olimlarning ishlarida qaysidir ma'noda o'z aksini topgan. Ammo nutqiy aktlar nazariyasiga oid chuqur va tizimli yondashuvlar XX asr o'rtalariga kelib

shakllana boshladi. Xususan, nutqiy aktlar nazariyasi atamasi ham bevosita John Langshaw Austin nomi bilan bog'liq. Uning "So'zlar yordamida ish bajarish" ("How to do things with words") nomli ma'ruzasi yangi lingvistik nazariyaning vujudga kelishiga poydevor bo'ldi. U ilgari surgan g'oyaning mazmuni shundan iborat ediki, so'zlar faqat axborot uzatish emas, balki harakat, ya'ni aktdir. J.Ostin nutqiy aktlarni 3 turga ajratadi:

- Lokutsion akt – gapning tarkibiy tuzilishi. So'zning lingvistik birlik orqali ifodalanishi, ya'ni grammatik shakl va undan anglashiladigan ma'no. U nutqning semantik jihatini o'z ichiga oladi. Shuningdek, u tilning fonetika, leksika hamda grammatika sohalari bilan uzviy bog'liq.

Lokutsion akt nutqiy aktlarning eng sodda va betaraf ko'rinishi bo'lib, unda so'zlovchi tinglovchiga ma'lum bir axborot beradi, ammo unda hali muloqotning maqsadi yoki ta'sir kuchi namoyon bo'lmaydi. Masalan, "men ertaga Toshkentga qaytaman". Bu oddiy xabar ma'nosidagi gap bo'lib, bundan so'zlovchining qachon va qayerga qaytishi haqidagi lokutsion ma'no anglashiladi. Yoki, "tashqarida qor yog'yapti" gapida ham faqat axborot berib, ma'lum bir fakti ifodalanyapti, xolos. Lekin biror maqsad yoki ta'sir kuchi mavjud emas. Bundan anglashiladiki, lokutsion akt nutqiy aktlarning eng primitiv shakli bo'lib, u mavjud bo'lmay turib, boshqa nutqiy shakllar yuzaga kelmaydi. O'z o'rnida, faqatgina lokutsion akt ko'rinishida qolgan nutq ham sotsial muhitda nafaol hisoblanadi.

- Illokutsion akt – nutqning maqsadi, nutq orqali bajariladigan harakat va uni ijtimoiy muhitda qo'llay olish (iltimos, maslahat, va'da, rad etish, buyruq berish v.h.z).

Masalan, "hoziroq xonamdan chiqib keting!" bu shunchaki xabar emas. Mazkur gapda buyruq va talab illokutsion kuchi mavjud. J.Austin nazariyasida nutqning illokutsion kuchi markaziy o'rinni egallaydi.

- Perlokutsion akt- bu nutqning tinglovchiga ko'rsatadigan hissiy, ruhiy va ijtimoiy ta'siri. Perlokutsion aktning o'ziga xos jihati shundaki, bunda natija kutilgan yoki kutilmagan bo'lishi mumkin. Bu esa nutqning ta'sir mexanizmiga uzviy bog'liq.

Masalan, "Sening o'ringda bo'lsam bunday xatarli ishga qo'l urmagan bo'lardim". Mazkur gapda nutqning perlokutsion ta'siri natijasida tinglovchida qo'rquv yoki ehtiyotkorlik hissi uyg'onadi. Yoki yana bir misol: "Har qanday vaziyatda ham men seni qaroringni hurmat qilaman". Ushbu gapda perlokutiv akt orqali tinglovchida ishonch va xotirjamlik hissi paydo bo'ladi. Perlokutsion akt nutqning natijaviy bosqichi bo'lib, u nutqning ijtimoiy muhitdagi ta'siri va kuchini yaqqol namoyon etadi.

Nutqiy aktlar nazariyasi keyinchalik J.Syorl tomonidan rivojlantirildi. U J. Ostinning nazariy qarashlarini tizimlashtirgan holda, nutqiy aktlarni aniq klassifikatsiya asosida o'rganishni tavsiya etdi. U tilni ijtimoiy faoliyatning qoidalar asosida boshqariladigan shakli, deb qaradi. Uning nazariyasiga ko'ra, inson o'z nutqi orqali axborot uzatibgina qolmay, balki o'zi uchun ijtimoiy majburiyatlar yaratadi, ularni o'zgartiradi yoki moslashtiradi. J.Syorl, asosan, nutqiy aktning illokutiv jihatiga e'tibor qaratib, uni izchil va atroflicha tatqiq etishga uringan. Syorl uchun nutqning lokutiv funksiyasi, ya'ni grammatik shakli va mazmunidan ko'ra, so'zlovchining nutqdan ko'zlagan maqsad va niyati muhimroq.

Shu o'rinda, J.Ostin va J.Syorlning nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil etish lozim. Ostin nazariyasiga ko'ra, nutq muvaffaqiyatli chiqishi uchun unga mos ijtimoiy muhit bo'lishi zarur.

Aks holda nutqiy akt muvaffaqiyatsiz bo'ladi. J.Syorlga ko'ra esa, nutq ijtimoiy voqelikni o'zgartiradi va ijtimoiy institutning bir bo'lagi deb qaraladi. Ostinning fikricha, shaxs nutqi orqali jamiyatga kirib boradi va ijtimoiylashadi. Syorlga ko'ra, nutq orqali shaxs ijtimoiy vazifa bajaradi. Ma'lum bir majburiyatni zimmasiga oladi. Shuningdek, Ostin nutq kontekstiga asoslansa, Syorl qoidalarga tayanadi.

Umuman olganda, J.Ostin va J.Syorl nazariyalari bir- biriga zid bo'lmay, aksincha biri ikkinchisini to'ldiradi. Ostin nutqning harakatga aylanishi va shaxsning nutq orqali jamiyatga kirib borishini ochib bergan bo'lsa, Syorl esa bu harakatning madaniy, mantiqiy va ijtimoiy maqsad va vazifalarini atroflicha yoritadi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, inson jamiyatning bir bo'lagi sifatida o'zining barcha axloqiy, ijtimoiy, madaniy, ruhiy va aqliy sifatlarini aynan muloqot orqali namoyon qiladi. Nutqiy aktlar nazariyasining konseptual asosini esa aynan muloqot tashkil etadi. Nutqiy aktlar nazariyasi esa tarixan bosqichma- bosqich rivojlanib, bugungi kunga qadar qator olimlar tomonidan izchil va tizimli ravishda o'rganib kelinmoqda. Bu borada esa J.Ostin va J.Syorl kabi olimlarning ishlari dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film //UNS Journal of language studies – 2014. – Vol. 03. – №01. – P.18. .
2. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – B.79.
3. Buzrukova M. O'zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari //Xorijiy filologiya – 2020. – №1. – B.108
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.
5. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society –1976. – Vol. 5 – №1. – P.1.
6. Choerunnisa R. An analysis of speech acts in the dead poets society: a thesis. – University of Yogyakarta, 2015.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – B.216-217.
8. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi: o'quv qo'llanma. – T.: Navro'z, 2019. – B.26.
9. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016. – B.420.
10. Виноградов В.В. Избранные Труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С.121-138.
11. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие для вузов по спец.